IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

MARKAZIY OSIYODA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISHDA HUDUDIY HAMKORLIK VA BARQARORLIK

Bektemirova Saida Xusan qizi
O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi
Tezkor Qidiruv departamenti Terrorizmga
qarshi kurashish xizmati yetakchi
muataxassisi katta leytenent
Tel: 99890 067 83 83
https://doi.org/10.5281/zenodo.23214626

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida terrorizm va radikalizmga qarshi kurashishda hududiy hamkorlikning strategik ahamiyati hamda mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda transmilliy tahdidlar, xususan, noqonuniy narkotrafik, qurol-yarog‘ kontrabandasi va radikal g‘oyalarning tarqalishi kabi xavf-xatarlar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, BMT va SHXT MATT kabi xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik yo‘nalishlari, kiberxavfsizlik va chegara nazorati vositalari yoritilgan. Maqolada terrorizmning tub ildizlarini bartaraf etishda kuch ishlatish usullari bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, diniy ma’rifat hamda yoshlar o‘rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning o‘rni alohida ko‘rsatib o‘tilgan.
Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo xavfsizligi, terrorizmga qarshi kurash, hududiy hamkorlik, transmilliy tahdidlar, mintaqaviy barqarorlik, ekstremizm va radikallashuv, chegara xavfsizligi, SHXT MATT, narkotrafik, profilaktik choralar, yoshlar tarbiyasi, diniy ma’rifat.

Abstract: This article analyzes the strategic importance of regional cooperation and the mechanisms for ensuring stability in countering terrorism and radicalism in Central Asia. The study examines transnational threats, particularly illegal drug trafficking, arms smuggling, and the spread of radical ideologies. It highlights key areas of cooperation within international and regional bodies such as the UN and the SCO RATS, focusing on cybersecurity and border control measures. Furthermore, the paper emphasizes that alongside hard-power security measures, addressing the root causes of terrorism requires socio-economic development, religious enlightenment, and the cultivation of ideological immunity among the youth.
Keywords: Central Asian security, counter-terrorism, regional cooperation, transnational threats, regional stability, extremism, radicalization, border security, SCO RATS, drug trafficking, preventive measures, youth education, religious enlightenment.

Mavzuning dilzarbligi: 21-asrda xalqaro terrorizm, ekstremizm va transmilliy uyushgan jinoyatchilik global va mintaqaviy xavfsizlikka raxna soluvchi eng jiddiy xatarlardan biriga aylandi. Geo-strategik va geosiyosiy nuqtai nazardan Markaziy Osiyo Yevroosiyo qit’asining markazida, yirik kuchlar manfaatlari va murakkab mintaqaviy jarayonlar tutashgan chorrahada joylashgan. Qo‘shni hududlardagi davom etayotgan harbiylashgan nizolar, mintaqa atrofidagi

beqarorlik o‘choqlari hamda xalqaro terrorchilik tarmoqlarining mintaqaga suqilib kirishga bo‘lgan urinishlari ushbu masalaning dolzarbligini har qachongidan ham oshirmoqda.

Bugungi kunda terrorizm tushunchasi transformatsiyaga uchrab, o‘zining klassik chegaralaridan chiqmoqda. U endilikda nafaqat qurolli hujumlar, balki axborot-psixologik xurujlar, radikal g‘oyalarni yoyish hamda moliyaviy-logistik tarmoqlarni qamrab olgan murakkab tizimga aylandi. Bunday keng ko‘lamli va o‘zgaruvchan tahdidlarga qarshi faqatgina bir davlatning milliy imkoniyatlari yoki majburlov vositalari bilan muvaffaqiyatli kurashib bo‘lmaydi. Shu sababli Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy va harbiy sa’y-harakatlarini birlashtirish, tezkor ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish hamda mustahkam huquqiy-mexanizmlarni shakllantirish mintaqaviy barqarorlikning yagona kafolatidir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Markaziy Osiyoda terrorizm va radikalizmga qarshi kurashishda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning strategik ahamiyatini har taraflama tahlil qilish, ushbu xavf-xatarlarning paydo bo‘lish va tarqalish omillarini ko‘rib chiqish hamda mintaqada uzoq muddatli tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan kompleks taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-amaliy vazifalar belgilandi:

1. Tahdidlar omilini aniqlash va tahlil qilish: Markaziy Osiyo xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi transmilliy omillar — noqonuniy narkotrafik, qurol-yarog‘ kontrabandasi va g‘oyaviy-mafkuraviy ekstremizmning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish.

2. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlik institutlarini o‘rganish: BMT, SHXT, MDB hamda YEXHT kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi aksilterror mexanizmlarining samaradorligini baholash.

3. Preventiv (profilaktik) chora-tadbirlar samaradorligini oshirish: Terrorizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’rifiy va institutsional sabablarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yollarini ko‘rsatish.

4. Strategik tavsiyalar ishlab chiqish: Chegara xavfsizligini oshirish, axborot makonini himoya qilish va yoshlar o‘rtasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha aniq takliflarni ilgari surish.

Markaziy Osiyoda aksilterror faoliyatini tashkil etish mintaqaga xos bo‘lgan geosiyosiy omillar va transmilliy xatarlarni chuqur tushunishni talab qiladi:

Eksport qilinayotgan radikalizm va ideologik bosim: Tashqaridagi nizoli hududlardan kirib kelayotgan radikal va buzg‘unchi g‘oyalar soxta diniy ma'lumotlar bilan niqoblanib, aholining muayyan qatlamlariga ta'sir o‘tkazishga urinmoqda.

Narkotrafeik va terrorizmni moliyalashtirish: Afg‘oniston orqali o‘tuvchi "Shimoliy yo‘nalish" deb ataluvchi narkotik moddalar trafigi terrorchilik tashkilotlarining asosiy daromad manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa narkojinoyatchilik va terrorizmning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, faqatgina harbiy va ma'muriy usullar bilan terrorizm tomirini quritib bo‘lmaydi. Uning keltirib chiqaruvchi tub sabablarini bartaraf etish zarur.

Bandlikni ta'minlash, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish radikal guruhlar uchun potensial yollanma manbalarni qisqartiradi. Sof diniy ma'rifat va radikallashuvga qarshi kurash: Diniy savodxonlikni oshirish, nodavlat va davlat diniy tashkilotlari hamkorligida doimiy ma'rifiy uchrashuvlar o‘tkazish orqali aqidaparastlik g‘oyalariga radikal to‘siq qo‘yish.

Chegaraoldi hamkorlik va integratsiya: Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo-sotiq, madaniy-gumanitar va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mintaqa ichidagi o‘zaro ishonchni va do‘stona muhitni mustahkamlaydi.

Markaziy Osiyoda terrorizmga qarshi kurashish va barqarorlikni ta’minlash — bu uzoq muddatli, ko‘p qirrali va uzluksiz strategik jarayondir. Mintaqadagi xavfsizlik va tinchlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir mamlakatdagi beqarorlik butun mintaqa rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, mintaqa davlatlarining aksilterror faoliyatida erishgan asosiy xulosalari quyidagilardan iborat: Terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatish choralarini preventiv va ma’rifiy vositalar bilan muvozanatlashtirish lozim. Mintaqaviy hamkorlik va ishonch xalqaro va transmilliy xatarlarga qarshi kurashishning eng samarali va muqobilsiz vositasidir.

Yoshlarning intellektual va kasbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o‘z vaqtida hal etish orqali radikallashuv va ekstremizm tarqalishining oldi olinadi. Markaziy Osiyoning barqaror kelajagi mintaqa mamlakatlarining jipsligi, strategik hamkorligi hamda har bir fuqaroning tinchlik va ogohlik borasidagi mas'uliyatiga doir xatti-harakatlariga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021. — 464 b.Birlashgan Millatlar Tashkiloti. BMTning Global aksilterror strategiyasi (UN Global Counter-Terrorism Strategy). — Nyu-York: BMT Bosh Assambleyasi A/RES/60/288 rezolyutsiyasi, 2006-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. "Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000.
3. Shanghai Cooperation Organisation (SCO). Regional Anti-Terrorist Structure (RATS SCO) annual report on countering terrorism, separatism and extremism in Central Asia. — Tashkent: RATS SCO, 2023.
4. Rashid, A. Jihad: The Rise of Militant Islam in Central Asia. — New Haven: Yale University Press, 2002. — 281 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI). "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaning o'rni" mavzusidagi tahliliy to‘plam. — Toshkent: SMTI, 2023. — 156 b.
6. Olcott, M. B. Central Asia's Second Chance. — Washington, D.C.: Carnegie Endowment for International Peace, 2002. — 389 p.
7. BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC). World Drug Report: Synthetic drugs and transnational organized crime networks in Central Asia. — Vienna: UNODC, 2022.